"Qo'ng'irot soda zavodi" MChJ qo'shma korxonasida kaltsinatsiyalangan soda ishlab chiqarishni yiliga 250 ming tonnaga kengaytirish" loyihasi bo'yicha tanlov savdosi (tender)

// 06.07.2021
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/tender/konkurs-soda

Tanlov savdosida (tenderda) ishtirok etish uchun taklifnoma

Sana	6-iyul 2021 yil
Takliflar (afert) topshirishning oxirgi muddati	2021 yil 20-avgust soat 18:00 (Toshkent vaqti bilan) Ommaviy axborot vositalarida e'lon chop etilgan kundan boshlab 45 kalendar kun ichida.
Loyihaning nomi	«Qo'ng'irot soda zavodi” MChJ qo'shma korxonasida kaltsinatsiyalangan soda ishlab chiqarishni yiliga 250 ming tonnaga kengaytirish
Buyurtmachining boshlang'ich narxi	190 000 000 (bir yuz to'qson million) AQSh dollari.
Qurilish muddati	30 oy.
Kontrakt shakli	Tayyor holda (eRS+F)
Moliyalashtirish	Xorijiy investorning investitsiyalari va moliya institutlarining kreditlari, shuningdek pudratchi tomonidan jalb qilingan kredit resurslari hisobiga amalga oshiriladi.
Buyurtmachi	«Qo'ng'irot soda zavodi» MChJ QK
Tender tashkilotchisi	«Qo'ng'irot soda zavodi» MChJ QK
Ishtirokchiga qo'yiladigan talablar	Talabgor sifatida qatnashuvchi korxona va tashkilotlar quyidagi talablarga javob berishi kerak: yuqori riskli va potentsial xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini qurish uchun litsenziyaga ega bo'lishi, tender savdolari qiymatining kamida 20% miqdorida aylanma mablag' yoki bu mablag'larni ta'minlash uchun bank kafolati, ish (xizmatlar)ni bajarish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish bazasi, mehnat resurslari va mutaxassislari, tanlovdagiga o'xshash ob'ektlardagi ish tajribasiga ega bo'lishi, shartnoma imzolash uchun fuqarolik huquqiy imkoniyatlar va vakolatlarga ega bo'lishi shart.

Qo'shimcha ma'lumot va tender hujjatlarini olish uchun ishtirokchilar murojat qilishlari kerak	Diqqat: Sherzod Yuldashev Investitsiya masalalari bo'yicha bosh direktor o'rinbosari «Qo'ng'irot soda zavodi» MChJ QK 230614, O'zbekiston Respublikasi, Qoraqolpog'iston, Ko'ng'irot tumani, Yelabad shaharchasi. Tel.: +998 99 212-55-79, +998 94 900-66-56 e-mail: sh.yuldashev@kungradsoda.uz
Tender hujjatlari to'plamining qiymati	To'lovsiz (tekin).
Takliflar (aferta) tender tashkilotchisi tomonidan qabul qilinadi	Yuqorida ko'rsatib o'tilgan manzil bo'yicha 2021 yil 20-avgust soat 18:00 (Toshkent vaqti bilan) dan kechikmagan muddatda.